

YOSHLARNING MA'NAVIY TARBIYASINI TIZIMLI YONDASHUV ASOSIDA RIVOJLANTIRISH

*O'zbekiston Finlandiya Pedagogika instituti o'qituvchisi
S.Qulmurodova*

Annatsiya: Ushbu maqola Milliy, mafkura, xalq, odob-ahloq, jamiyat, allomalar, ta'lim-tarbiya, jamoa, tizim, orzu, maqsad, texnologiya haqida so'z boradi.

Annotation: National, ideolog, people, manners, societe, neighbourhood, education, team, family, dream, goal, concept.

Annatsiya: V state rassmatrivayutsiya nasionalnost, ideologiya, lyudi, moral, obshestvo, semya, mechta, sel, konsepsiya.

Jahon miqyosida yoshlar ma'naviy tarbiyasida tizimli yondashuvning innovatsion texnologiyalari takomillashtirish jarayoni hozirgi zamon pedagogika fanining muhim muammosi sifatida e'tirof etilib oliy ta'lim muassasalarida yoshlarni ma'naviy jihatdan tizimli yondashuvda innovatsion texnologiyalarni takomillashtirish interaktiv dasturiy vositalarini ishlab chiqishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Bu jarayonda yoshlarning ma'naviy tarbiyasini tizimli yondashuviga ta'sir ko'rsatuvchi omillarni jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy tendensiyalari tahliliga ko'ra aniqlash, motivatsion komponentalar asosidagi faoliyatning ongli munosabatlarni tarkib toptirishdagi imkoniyatlarini aniqlash, hamda yoshlarning ma'naviy tarbiyasida tizimli yondashuvning innovatsion texnologiyalarini takomillashtirish tadbirlarining ta'sirchanligini oshirish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu jarayonda, globallashtirish sharoitida talabalarning ma'naviy jihatdan ularni ijtimoiylashuvini tizimli holda rivojlantirish nazariyasiga tayangan holda oliy ta'lim tashkiloti, oila va boshqa ijtimoiy institutlarning hamkorlikdagi faoliyatini tashkil etish hamda takomillashtirish orqali yoshlarning ma'naviy tarbiyasida tizimli yondashuvning innovatsion texnologiyalarini takomillashtirish jarayoni rivojlanmoqda.

Mamlakatimizda keyingi yillarda barkamol avlod tarbiyasi va inson omili masalasi ta'lim islohatlarining asosiy mazmunini tashkil etib, oliy ta'lim tashkilotlarida yoshlar ma'naviy tarbiyasini tizimli holda tashkil etishga qaratilmoqda. Natijada talabalarga jamiyatdagi o'z o'rnini topishga ko'maklashish bu jarayonda ma'naviy jarayonlarni tizimli tarbiyalashda raqobatbardoshligini ta'minlash uchun yangi tashabbus va g'oyalar bilan maydonga chiqib, ularni amalga oshirishga qodir bo'lgan intellektual va ma'naviy salohiyati yuksak yangi avlod kadrlarini tayyorlash, ta'lim tashkiloti bitiruvchilari ma'naviyatini tizimli tashkil etish uchun ularda zarur ko'nikma va bilimlarni shakllantirish vazifasi belgilanib ushbu jarayonda ma'naviy tizimni

tashkiliy tuzilmasini ta'minlashning pedagogik mazmunini takomillashtirish bo'yicha ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqish muhim ahamiyatga ega.

Hozirgi vaqtda ma'naviy va milliy qadriyatlar, urf-odatlar va an'analarimizni yoritishga bag'ishlangan ilmiy-uslubiy ishlar, asosan xususiy hollarda ya'ni bir allomaning yoki boshqa bir aziz avliyolarimizning hayoti ijodi va ilmiy kashfiyotlari haqida bo'lib unda biror-bir pedagogik metod uslublardan foydalanib ularni targ'ib qilish ishlari yo'lga qo'yilgan. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 3-maydagi PQ-4307-sonli qarorida "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora tadbirlar" belgilangan [1]. Mamlakatimizda ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tizimli tashkil etish, bu borada amalga oshirilayotgan chora-tadbirlarning samaradorligini oshirish, aholini ayniqsa yoshlarning intellektual salohiyati, ongu tafakkuri va dunyoqarashini yuksaltirish, mafkuraviy immunitetini mustahkamlash, vatanparvarlik, xalqqa muhabbat va sadoqat tuyg'usi bilan yashaydigan barkamol avlodni tarbiyalashga alohida e'tibor qaratilayotganligi" bu jarayon bugungi kunning dolzarb masalalaridan biridir.

Bugungi jamiyatning, unda yashaydigan insonlarning taqdiri va kelajagi albatta davlatlarning yetakchi kuchlari hisoblanmish yoshlar tarbiyasi bilan chambarchas bog'liqligi barchamizga ayondir. Yurtimizda yoshlarning intellektual va ijodiy salohiyatini mustahkamlash, ularning mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarga daxldorligini oshirish borasida ulkan ishlar olib borilmoqda. Zero, zamonaviy bilim va ko'nikmalarga ega, mamlakatning munosib kelajagi uchun javobgarlikni o'z zimmasiga ola biladigan, o'tmish ajdodlarini har bir bosib o'tgan sharaflari yo'llarini e'zozlaydigan, ajdodlarining ilmiy meroslarini o'z o'rnida qo'llay biladigan, barkamol, maqsadga intiluvchan va serg'ayrat yoshlarni tarbiyalash bugunning eng muhim vazifalaridir.

Bundan shuni xulosa qilish mumkinki: buyuk mutafakkirlarimiz, allomalarimiz, aziz-avliyolarimizning hayoti, ijodi va buyuk kashfiyotlaridan olingan ma'naviyat olamiga, milliy qadriyatlarga an'analarga va urf-odatlarga boy materiallarni mustaqillik yillarida erishilgan muvaffaqiyatlarimiz bilan uyg'unlashtirilgan holda tizimli yondashuv asosida hayotga tadbiriq etish masalasi dolzarbdir.

Bugungi kunda ilm-fan jadal taraqqiy etib borayotgan turli fan sohalarida erishilgan yutuqlar tez yangilanib bormoqda. Oliy ta'lim tizimida ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tizimli tashkil etish, yoshlarning intellektual salohiyati, tafakkuri va dunyoqarashini yuksaltirish, xalq manfaatlari uchun xizmat qilish tuyg'usi bilan yashaydigan barkamol avlod sifatida tarbiyalashga qaratilgan talaba-yoshlarning ma'naviy-axloqiy ongini kuchaytirish davr ehtiyojidan kelib chiqmoqda. Bugungi kunda yoshlarning ma'naviy olamini yuksaltirish, ularni milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalash masalasi bizning oldimizda turgan eng dolzarb vazifalarimizdan biridir. Yosh avlod tarbiyasi o'ta dolzarb masala bo'lib, u ta'lim-

tarbiyada uzviylik, qat'iylik va talabchanlik, ishlashning zamonaviy, ta'sirchan usul va vositalarini talab etadi.

Shuningdek boshqa faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya muayyan darajada xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 3-maydagi "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora tadbirlar to'g'risida" PQ-4307-sonli Qarori;
2. Ta'lim va innovatsion tadqiqotlar (2021 yil №6) Oliy ta'lim tizimida talaba yoshlarni ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tashkil etishga tayyorlash texnologiyalari. Ziyayeva, M.F, Abduvahobova D.E, Hazratqulova A.B.